TALABA YOSHLAR ORASIDA OILA VA UNGA BO‘LGAN MUNOSABATLARDA IJTIMOIY TARMOQNING ROLI

Oqo‘tayeva Dilnoza Olimjon qizi
Alijonova Gulasal Abduhalil qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabalari
Ilmiy rahbar: Berdiqulova Mahbuba Erkinjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi globallashuv davrida talaba yoshlar hayotida ijtimoiy tarmoqlarning oilaviy munosabatlarga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongida oila institutiga bo‘lgan munosabatni shakllantirishdagi ijobiy va salbiy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, virtual muloqotning real oilaviy muloqotga ta’siri, yoshlarning oilaviy qadriyatlarni qabul qilishi va kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorgarlik jarayonida raqamli texnologiyalarning o‘rni yoritilgan. Maqola yakunida talaba yoshlar o‘rtasida sog‘lom oilaviy muhitni saqlash va ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: talaba yoshlar, oila, ijtimoiy tarmoq, virtual muloqot, oilaviy qadriyatlar, raqamli avlod, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraviy ta’sir.

Talabalarni oilaviy hayot qadriyatlari bilan tanishtirish muammosining dolzarbligi, birinchi navbatda, oilani jamiyatni takror ishlab chiqarish, gendir munosabatlari madaniyatini shakllantirish, birgalikdagi hayotda erkak va ayolning ma’naviy va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, bolalarni tarbiyalashning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida alohida ahamiyati bilan belgilanadi. Oilaga g‘amxo‘rlik qilish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. “Odob as-solihin” asari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va eng avvalo yoshlarda oilaviy hayot to‘risidagi tushunchalarni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Asarni o‘rganish va tahlil qilishdan keyingi natijalarga asoslanib, asarni ta’lim muassasalarida o‘quv predmetlari tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Jumladan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yoshlarning axloqini yuksaltirishda jamiyatning muhim manbasi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oila bugungi kunimizning o‘rganilishi kerak bo‘layaotgan mavzularidan biri sifatida, qadim zamonlardan e’tibor qaratilan va insoniyatini jamiyatga bog‘lab turuvchi fundamental asos hisoblangan, hozirda ham huddi shunday vazifani bajarib kelmoqda.

Oila borasida Sharq va G‘arb olimlari qadimdan o‘z izlanishlari olib borganlar quyida ulaning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Kaykovus, Hotam ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur. O‘zbek olimlaridan M.G. Davletshin, G.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.N. Sattorov, N.A. Soginovlar. G‘arb olimlari A. I. Antonov, A. B. Artyuxov, I. V. Bestujev-Lada, A. G. Vishnevskiy, S. I. Golod, T. A. Gurko, O. N. Dudchenko, I. V. Kalabixin, V. V. Solodovnikov tadqiqotlarida oila va uning rivojlanishi, muammolari o‘rganilgan.

Asosiy qisim. Oila - har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istaklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o‘zbek xalqining qadriyatlari va ma’naviy merosi ravnag‘ini ta’minlovchi tarbiya maskanidir. “Halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllanadi”. Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o‘zaro munosabatlari majmui bo‘lib hisoblanadi.

Ayniqsa yosh oilalarda ota-onalik ma’suliyatini o‘z zimmasiga olib o‘zaro munosabatlar tizimini to‘g‘ri shakllantirish jarayonlarida kuzatiladi. Payg‘ambarimiz bir hadislarida: “Xulqi yaxshi bo‘lgan musulmon imon jihatidan eng mukammal musulmondir”, - degan edilar. Oila muammolari, shaxslararo munosabatlarning insoniyat jamiyati kabi qadimiy va dolzarbligi bois, o‘tmish mutafakkirlaridan tortib to hozirgi zamon tadqiqotchilari ham oila va oilaviy muammolarga o‘z e’tiborlarini qaratganlar. Sharqning buyuk allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy,

Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Kaykovus, Hotam ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin kabi ko‘plab olimlar nikoh - oila masalalarida o‘zlarining durdona fikrlarini qoldirib ketganlar. Ularning qarashlari bugungi kunimizda ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyat kasb etadi. Oila va oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, o‘zbekistonlik psixolog olimlar ham bu yo‘nalishda o‘ziga xos maktab yaratilishiga hissa qo‘shmoqdalar. Olimlardan M.G. Davletshin, G.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.N. Sattorov, N.A. Soginov, E.Sh. Usmonov, X.K. Karimov, F.A. Akramova, N. Salaeva, F.R. Ro‘zikulov, G.T. Yadgarova, M.X. Fayzieva, N.X. Lutfullaeva, U.S. Saribaeva va boshqalarning ishlarida bu masalalar maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etilgan.


Yuqorida keltirib o‘tilganlardan ko‘rinib turibdiki, nikoh - oila munosabatlari, oilaviy hayot muammosi chet ellik olimlar tomonidan ham keng ko‘lamda tadqiq etib kelinmoqda, bu borada o‘ziga xos tajribalar to‘plangan. Oila hayotini o‘zgartirish g‘oyalari A. I. Antonov, A. B. Artyuxov, I. V. Bestujev-Lada, A. G. Vishnevskiy, S. I. Golod, T. A. Gurko, O. N. Dudchenko, I. V. Kalabixin, V. V. Solodovnikov tadqiqotlarida aks ettirilgan. Oilaning ijtimoiy funktsiyalarini tahlil qilish V. V. Bodrova, E. K. Vasileva, V. Golofast, B. M. Levin, N. V. Malyarova, M. S. Matskovskiy. Bir qator asarlarda oilaviy va nikoh munosabatlarining ijtimoiy-psixologik muammolari ochib berilgan (A. A. Avduev, T. M. Afanasyeva, I. V. Grebennikov, V. M. Medkov, B. S. Pavlov, T. M. Trapeznikova, A. G. Xarchev, E. Eidermiller, Z. A. Yankova). Talaba yoshlar ham ijtimoiy munosabatlarda faol ishtiirok etmoqda ekanlar jamiyatda ularning fikirlari ham katta ahiyatga ega hisoblanadi, biz bilamizki bugungi rivojlanayotgan shiddatli jamiyatda farzand tarbiyasi, oilaviy munosabatlar oila borasida yoshlarning fikirlari eski davr insonlarinikidan tubdan farq qiladi, aksariyat holatlarda yoshlarda tug‘ulayotgan muomoli holatlardan biri real va mediya hayotning bir – biridan tafovutlarini aniqlayolmasliklaridadir.

Tadqiqotimiz davomida oilalarda bo‘layotgan ajirimlar va ularning aksariyati oliy ma’lumotli juftliklar ishtirokida amalga oshirilayotgani yurtimiz taraqqiyotiga ijoiy ta’sir ko‘rsatmasligi xech qaysimizga sir emas. Zet avlod siftida ta’lim va tarbiyani olayotgan talaba o‘g‘il qizlarning oilaviy munosabatlari va o‘z turmush o‘rtoqlarini topshdagi ijtimoiy tarmoqning naqadar ahamiyatli ekanligini kichik tadqiqot qilishga qaror qildim. Talabalarning o‘z turmush o‘rtoqlarini tanlasda mediyaning qay darajada o‘rnini aniqlash maqsatida 30 ta talabadan ijtimoiy so‘rovnoma oldik.

	Ijtimoiy so‘rovnoma	**Ba’zan ta’sir ko‘rsatadi**	**Umuman ta’sir ko‘rsatmaydi**	**ta’sir ko‘rsatadi**	**Juda muhum ta’sir ko‘rsatadi**
	Ballar	**1**	**2**	**3**	**4**
1	Ijtimoiy tarmoqlarda (Instagram, Telegram, TikTok va boshqalar) ko‘riladigan ramantik oilaviy hayot namunalari sizning turmush o‘rtoq haqidagi tasavvuringizga ta’sir qiladimi ?				
2	Serial va filmlarda ko‘rsatiladigan ideal juftlik obrazi sizning turmush o‘rtoq tanlashdagi mezonlaringizga ta’sir ko‘rsatadimi ?				
3	Blogerlar yoki mashhur shaxslar bilan oil abo‘lib yashashni istarmidingizmi ?				
4	Internet orqali tanishish (ijtimoiy tarmoqlar yoki tanishuv ilovalari) sizning turmush o‘rtoq tanlashingizga tasir o‘tqazadima ?				
5	Turmush o‘rtog‘ingiz Mediadagi kabi tashqi ko‘rinish (go‘zallik, kiyinish uslubi)ga ega bo‘lishi siz uchun turmush o‘rtoq tanlashda muhimmi ?				
6	Media orqali tarqatilagan moddiy farovonlik va hashamatli hayot tasvirlari turmush o‘rtoq tanlashdagi talablaringizga				

	ta’sir xosmi ?				
7	Ommaviy axborot vositalarida oilaviy muammolar va ajrimlar haqidagi materiallar sizning nikohga bo‘lgan ishonchingizga ta’sir qiladimi ?				
8	Mediada gender rollari (erkak va ayolning oiladagi roli) qanday ko‘rsatilishi sizning oilaviy qarashlaringa tasir etadima ?				
9	Media orqali olingan ma’lumotlar ota-ona yoki yaqinlarning maslahatlariga nisbatan siz uchun qanchalik muhim ?				
10	Sizningcha, hozirgi kunda talabalarning turmush o‘rtoq tanlashida media qanchalik hal qiluvchi rol o‘ynaydi ?				
Jami:					
Umumiy ball:					

Bugungi talabalarda turmush o‘rtoqlarini tanlashda milliy qadryatlarga qaraganda ijtimoiy tarmoqlarga qarab o‘z tanlovlarini qilmoqda ekanliligi ko‘rishimiz mumkin. Bunga ko‘ra talabalarda turmush o‘rtoq tanlashda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati muhum ekanliga guvoh bo‘ldik.



Xulosa. Talabalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, oila haqida ularga raellik bilan yondashishni o‘rgatish, mediya olamidagi ramantik hayotning ideal emasligini tushuntirish, oila muqaddas dargoh ekanliligini bot - bot aytish va tushuntirish maqsadli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.Podrobneye: https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/nikoh_va_oila_qonun hujjatlari.
2.“Ijtimoiy boshqaru” jurnalidan.
3. Roussel L. La Famille incertaine. Editions Odibe Jacob, 1989.
4. Hatay Mustafo Kamol universiteti **“**Ijtimoiy va diniy tadqiqotlar**”** jurnali.
5. Волков А.Г. Семья – объект демографии. – Москва:
6. Антонов А.И. Социология семьи: Учебник. – Москва: ИНФРА-М, 2009. Cairn.info saytida 30.06.2022 da chop etilgan. https://doi.org/10.3917/tiers.012.0051.